

O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON RESPUBLIKALARI O'RTASIDA MADANIY ALOQALARNING HUQUQIY-NORMATIV BAZASINING SHAKLLANISHI BOSQICHI.

Tursunov Asror Allanazarovich

Qarshi davlat texnika universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi o'rtasidagi madaniy aloqalarning huquqiy-normativ asoslari shakllanish jarayoni tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda ikki davlat mustaqillikka erishganidan keyingi davrda madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilgan xalqaro shartnomalar, hukumatlararo bitimlar va huquqiy hujjatlarning mazmuni ochib berilgan. Maqolada madaniy almashinuvlar, ilmiy hamkorlik, ijodiy jamoalar faoliyati, madaniyat kunlari va umumiy tarixiy-madaniy meros asosida shakllangan aloqalarning rivojlanish bosqichlari tahlil etilgan. Shuningdek, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi madaniy hamkorlikning nafaqat gumanitar munosabatlarni mustahkamlashdagi, balki mintaqaviy barqarorlik va xalqlar o'rtasidagi do'stlik aloqalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari ikki davlat o'rtasidagi madaniy aloqalar mustahkam huquqiy asosga ega bo'lib, tarixiy yaqinlik va umumiy qadriyatlar asosida rivojlanganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Qozog'iston, madaniy aloqalar, huquqiy-normativ baza, xalqaro shartnomalar, madaniy-gumanitar hamkorlik, diplomatik munosabatlar, ilmiy almashinuv, madaniyat kunlari, Markaziy Osiyo integratsiyasi.

Mustaqillikning ilk yillarida asosiy vazifa – yangi huquqiy baza yaratish va ilk almashinuvlarni tashkil etish bo'ldi. 1992 yil 24 iyunda Turkiston shahrida imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi Shartnoma ikki davlat

o'rtasidagi barcha sohalar, jumladan, madaniy-gumanitar hamkorlikning huquqiy asosini yaratdi[1]. Shartnomada fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash, ta'lim, fan, madaniyat, sport va turizm sohalarida hamkorlik, ilmiy almashinuv, diplomlarni o'zaro tan olish, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya kabi ijtimoiy-gumanitar sohalardagi o'zaro hamkorlik masalalari belgilab qo'yilgan[2]. Bu Shartnoma O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi strategik sheriklikni har tomonlama – siyosiy, iqtisodiy, harbiy, gumanitar va ekologik sohalarda mustahkamlashga qaratilgan keng qamrovli huquqiy asos hisoblanadi.

1992 yil 15 mayda Toshkentda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar o'rtasida madaniyat sohasida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan Bitim imzolangan bo'lib, undan asosiy maqsad madaniy aloqalarni mustahkamlash va kengaytirish, milliy madaniyatlarning tengligi va o'zaro boyishini ta'minlash, insonning madaniy o'zligini saqlash, ijod erkinligi va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, davlatlar o'rtasida do'stlik va hamkorlikni kuchaytirishdan iborat edi[3]. Ushbu Bitim ham O'zbekistonning Qozog'iston bilan madaniyat sohasidagi hamkorlikka qaratilgan hujjatlardan biridir[4]. Chunki Bitimning asosiy yo'nalishlari etib teatr, musiqa, kino, televideniye, muzey va kutubxona ishlarida hamkorlik, madaniy merosni muhofaza qilish va undan samarali foydalanish, milliy madaniy markazlar va jamoat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash va fuqarolarga madaniy boyliklardan teng foydalanish imkonini yaratish masalalari belgilangan[5]. Shuningdek, o'zaro madaniy almashinuvlar doirasida ijodiy jamoalar gastrollari va ko'rgazmalar tashkil etish, kitoblar, filmlar, radio-televideniye dasturlari almashinuvi, festival, konferensiya va seminarlar o'tkazish, axborot va hamkorlik doirasida esa yagona axborot makonini shakllantirish, erkin axborot almashinuvini ta'minlash, madaniyat va san'at vakillari o'rtasida aloqalarni rivojlantirish, ta'lim va ilm-fan yo'nalishida hamkorlik va almashinuvni yo'lga qo'yishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir[6].

Mustaqil O'zbekiston va Qozog'iston olimlari o'rtasida ilmiy va madaniy aloqalar kengaydi. Jumladan, 1992 yili Markaziy Osiyo respublikalari rahbarlarining uchrashuvida O'zbekiston Fanlar Akademiyasi prezidenti va

Qozog'iston Fanlar Akademiyasi prezidenti ikki mamlakat olimlari o'rtasida ilmiy-texnik hamkorlik dasturini ishlab chiqdilar. Ikki mamlakat ilmiy markazlari rahbarlari elektrotexnika, materialshunoslik, matematik modellashtirish, axborotshunoslik, kompyuter texnologiyalari, avtomatlashtirish, molekulyar genetika, kibernetika, mashinasozlik, demografik iqtisodiyot, biotexnologiya, lazer fizikasi, geologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va ilmiy-texnologik rivojlanishning boshqa yo'nalishlarida hamkorlikni o'rnatish va rivojlantirishga kelishib oldilar[7].

Hatto, «Markaziy Osiyo Akademiyasi» nodavlat tashkiloti tashkil etildi, uning tuzilishida O'zbekiston va Qozog'iston olimlari faol qatnashdilar. 1993 yilda Toshkentda Markaziy Osiyo davlatlari akademiklarining «Ilm millat tanlamaydi – u barcha xalq uchun xizmat qiladi» shiori ostida uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda ilmiy markaz va institutlar rahbarlari mustaqillik sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishda ilm-fanning o'rni, ilmiy tadqiqotlar, ilmiy-texnik aloqalarni rivojlantirish, hamkorlikni kengaytirish kabi dolzarb masalalarni muhoka qildilar[8].

Markaziy Osiyo Akademiyasida Rossiya, Turkmaniston va Tojikiston akademiklari bilan birga qozog'istonlik akademiklardan A.A. Kunayev va B.A. Tulenbayevlar o'zbekistonlik P.K. Xabibullayev va E.Y. Yusupovlar bilan samarali tadqiqot olib borishdi. Ayniqsa, ikkala respublika olimlari ham Orol dengizining qurilishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borishdi. Qozog'iston va o'zbekistonlik olimlar Orol dengizining qurilishi bilan bog'liq ekologik muammolarni hal qilishga va ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishga yordam beradigan takliflar bildirdilar. Orol muammosiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy konferensiyalar, simpoziumlar va ilmiy seminarlar tashkil etildi[9].

Shunday qilib, ushbu Bitim madaniyat sohasida davlatlar o'rtasida, xususan, O'zbekiston – Qozog'iston o'rtasidagi har tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish, madaniy aloqalarni kuchaytirish va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilishga xizmat qildi deyish mumkin.

1994 yil 10 yanvarda Qozog'iston birinchi Prezidenti N. Nazarboyev va O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A. Karimov yagona iqtisodiy hududni barpo etish to'g'risida shartnoma imzolab, Markaziy Osiyo hamdo'stligiga poydevor qo'yishdi. Ushbu shartnoma MDH iqtisodiy ittifoqi tuzish to'g'risidagi shartnoma qoidalarini rivojlantirish, 1994–2000 yillarda O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasini iqtisodiy integratsiyalashni chuqurlashtirishga doir qo'shma dasturni amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan[10]. Shuningdek, fan, maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, sayohlik va sport sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirish to'g'risida hukumatlararo bitimlar ham imzolandi[11].

1994 yil 10 yanvarda Toshkentda imzolangan «O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Qozog'iston Respublikasi Hukumati o'rtasida madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, ta'lim, turizm va sport sohalarida hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risidagi shartnoma» madaniy-gumanitar sohaning asosiy hujjatiga aylandi[12]. Unda madaniy almashinular, ilmiy konferensiyalar, ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik, adabiyot va san'at asarlarining tarjimasi kabi yo'nalishlar belgilandi.

Mustaqillikdan so'ng Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi har tomonlama hamkorlik mobaynida madaniyat sohasidagi aloqalar ham sezilarli darajada mustahkamlandi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O'zbekistonda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston madaniyati kunlari va aksincha, mazkur chegaradosh davlatlarda O'zbekiston madaniyati kunlarini o'tkazib kelish an'anasi yo'lga qo'yilgan[13]. Bu ham davlatlar o'rtasidagi har tomonlama yaqin aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi, albatta.

Mintaqada yashab ijod qilgan buyuk allomalar, xalq dostonlari va qadimiy shaharlarning yubileylarini birgalikda o'tkazish ham yaxshi an'anaga aylangan. Bunday madaniy tadbirlarni uyushtirish va o'tkazish tarixi, tili va madaniyati bir bo'lgan mintaq xalqlari o'rtasidagi azaliy do'stlikni mustahkamlashga, ularning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi[14]. Shuningdek, Cho'qon Valixonov, Abay, Jambul, Muxtor Avezov, Sobit Muqonov, Anvar Olimjonov, O'ljas Sulaymonov kabi yozuvchilarning o'zbek va qoraqalpoq tillariga tarjima

qilingan asarlari kutubxonalarda o'zbek yozuvchilari asarlari bilan doimo birga turadi.

O'zbekiston va Qozog'iston hukumatlari o'rtasida madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, ta'lim, turizm va sport sohalarida hamkorlikni chuqurlashtirish doirasida ilmiy-texnik hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari belgilanib, ikki davlatning tegishli idoralari tomonidan quyidagi sohalarda hamkorlik rivojlantiriladi:

1. Kompyuter fanlari, aloqa va telekommunikatsiyalar;
2. Ilmiy va texnik axborotning davlatlararo tizimi;
3. Markaziy Osiyo davlatlarining patent tizimlarini birlashtirish, davlatlararo ilmiy-texnik hamkorlikni qo'llab-quvvatlash va intellektual mulkni himoya qilish;
4. Ishtirok etuvchi mamlakatlarning rivojlanishi manfaatlarida yirik ilmiy-texnikaviy obyektlardan birgalikda foydalanish;
5. Orol dengizi muammolarini hal qilish uchun ilmiy-texnik yordam.

Yuqoridagi har bir ustuvor yo'nalish bo'yicha maxsus ishchi guruhlar tuzilib, aniq loyihalar ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Shuningdek, ilmiy-texnik hamkorlik dasturlari muhokama qilinib, qo'shma tadqiqotlarni amalga oshirish rejalashtirilgan[15].

Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik doirasida asosiy ilmiy yo'nalishlar quyidagilarni qamrab oladi:

1. Tabiiy va xomashyo resurslaridan kompleks foydalanish uchun energiya va resurslarni tejaydigan texnologiyalar sohasida qo'shma loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
2. Milliy iqtisodiyot uchun radioaktiv chiqindilarni ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish;
3. Ikki mamlakat uchun astronomiya, fizika, kimyo va materialshunoslik sohalarida ustuvor yo'nalishlarda qo'shma ilmiy tadqiqotlar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
4. Biotexnologiya va genetik muhandislik sohasida qo'shma dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

5. Orol dengizi va Orolbo'yi mintaqasining ekologik muvozanatini tiklash bo'yicha chora-tadbirlar majmuini o'rganish va ishlab chiqish;
6. Cho'llardan kompleks foydalanish va cho'llashishni nazorat qilish;
7. Zilzilalarni bashorat qilish va zilzilaga chidamli qurilishni takomillashtirish;
8. Quyosh va boshqa noan'anaviy energiya manbalaridan kompleks foydalanish;
9. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishini prognoz qilish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
10. Yagona sun'iy yo'ldosh aloqasi va axborot ta'minoti tizimi loyihasini ishlab chiqish;
11. Ilmiy va texnik axborotning yagona tizimini ishlab chiqish[16].

Ushbu hamkorlikning asosiy maqsadi – ilmiy salohiyatni birlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy va ekologik muammolarni birgalikda hal qilish hamda mintaqada barqaror rivojlanishga erishishdan iborat bo'lgani ko'rinib turibdi.

1994 yil 23–27 may kunlari O'zbekistonda ilk bor Qozog'iston kunlari o'tkazilib, bu tadbir ikki davlat mustaqillikka erishganidan keyingi madaniy-gumanitar va diplomatik aloqalar tarixidagi eng birinchi yirik tarixiy burilish nuqtasi hisoblanadi. Ushbu tadbirga hukumat darajasida e'tibor qaratilib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 6 maydagi 241-sonli maxsus qarori bilan Qozog'iston kunlarini yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita va tadbirlar dasturi tasdiqlangan[17].

1994 yil 26 may kuni «O'zbekistonda Qozog'iston Respublikasi kunlari qatnashchilarining bir guruhini mukofotlash to'g'risida» O'zbekistonda Qozog'iston Respublikasi kunlariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda fidokorona mehnati hamda yuksak mahoratini namoyish etgani uchun «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist» mukofotiga J.Baspaqova, O.Musaxo'jayeva, S.Orozboyev, R.Rimboyevalar sazovor bo'lishdi. «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi» mukofotiga

N.Nusinjonov, N.Usenboyevlar sazovor bo'lishdi. «O'zbekiston Respublikasi faxriy yorlig'i» bilan O.Abdukarimov, G.Asistova, U.Boygeldiyev, M.Yeraliyeva, G.Yesimov, T.Jamonqulov, M.Jonusov, S.Kojaxmetov, V.Stepanov, I.Tarasova, Z.Turisbekov, R.Urozgaliyev, M.Shalaboyev, S.Shavxamanovlar[18]ning mukofotlanishi ikki davlat o'rtasidagi madaniy aloqalar mustahkamlanishining isbotidir.

Ushbu tadbirning tarixiy va siyosiy ahamiyati o'laroq 1994 yil boshida O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida «Yagona iqtisodiy makon tashkil etish to'g'risida»gi shartnoma imzolangan bo'lsa, madaniyat kunlari ushbu iqtisodiy integratsiyani ma'naviy-madaniy jihatdan qo'llab-quvvatlash va xalqlarni yaqinlashtirish mexanizmi vazifasini bajardi.

1994 yil 8 iyul kuni Olmaota shahrida Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Qirg'iziston Prezidenti Askar Akayev va O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan imzolangan «Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi xalqlariga» Murojaatnomasi — Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsiyasini yangi institutsional bosqichga olib chiqqan tarixiy va siyosiy hujjatdir[19]. Murojaatnomada insoniy munosabatlarni chuqurlashtirish, odamlarning kundalik aloqalarini yengillashtirish, Markaziy Osiyo xalqlari taqdiri mushtarakligini ta'minlash, milliy o'ziga xos fazilatlar, qardosh xalqlar tillarining mushtarakligi hamda yagona iqtisodiy makonga ega bo'lishi kabilar ko'zda tutilgan.

Ushbu hujjat 1994 yil 30 aprelda Cholpon-Otada imzolangan «Yagona iqtisodiy makon tashkil etish to'g'risida»gi shartnomaning mantiqiy davomi sifatida xalqlarni iqtisodiy integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etishga chaqirgan. Uch qardosh xalqning tarixiy ildizlari, madaniyati va tili mushtarakligi e'tirof etilib, suveren davlatlar sifatida umumiy madaniy-gumanitar makonni saqlab qolish va rivojlantirish zarurligi bayon qilingan[20].

Mintaqada yashovchi o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, tojik, turkman va boshqa barcha xalqlar o'rtasidagi do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlashni ko'zda tutib I.A. Karimov 1995 yil 5 mayda Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasida

“Turkiston – umumiy uyimiz” g‘oyasini ilgari surgan[21]. Aynan shu g‘oya ostida 1995 yil 21-22 noyabrda «Turkiston» nomi berilgan Toshkentdagi konsert saroyida Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston davlatlari milliy madaniyatlarini o‘zaro rivojlantirish va integratsiyalashtirishga bag‘ishlangan qurultoy bo‘lib o‘tdi[22]. Qurultoyda 400 ga yaqin madaniyat, san‘at, adabiyot va fan namoyandalari qatnashdilar.

1995 yil 20–24 may kunlari Qozog‘istonda ilk bor davlat darajasida O‘zbekiston kunlari bo‘lib o‘tgan. Bu tadbir 1994 yil Toshkentda o‘tkazilgan Qozog‘iston kunlarining mantiqiy davomi bo‘lib, ikki mustaqil davlatning madaniy, ilmiy va iqtisodiy integratsiyasini yangi bosqichga olib chiqqan tarixiy voqelikdir.

Ushbu qarorga ko‘ra, 1995 yil 5–8 iyul kunlari respublika miqyosida Abayning yubiley tadbirlari tantanali ravishda o‘tkazildi. Asosiy bayram tadbirlari Toshkent shahri hamda Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida ilmiy va ijodiy jamoatchilik keng jalb etilgan holda tashkil etildi.

1995 yil may oyida o‘tkazilgan ushbu madaniyat va do‘stlik anjumani shunchaki san‘at namoyishi emas, balki jiddiy siyosiy-iqtisodiy maqsadlarga xizmat qildi. Jumladan, 1994 yil iyulida Olmaotada uch davlat (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston) rahbarlari tomonidan «Yagona iqtisodiy makon» va institutsional Davlatlararo Kengash tuzilganidan keyin, ushbu tadbir xalqlarni yangi integratsiyaviy jarayonlarga ma‘naviy jihatdan tayyorlash va do‘stlik aloqalarini mustahkamlashning asosiy vositasi bo‘ldi. Delegatsiyalarning viloyatlarga qilgan tashriflari davomida ikki mamlakat chegaraoldi hududlari va yirik sanoat markazlari o‘rtasida xom-ashyo yetkazib berish va qishloq xo‘jaligi sohasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy shartnomalar imzolanishiga katalizator bo‘ldi.

1996 yil oktabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan turk tilida so‘zlashuvchi davlatlarning oliy darajadagi to‘rtinchi uchrashuvida ham turli sohalarda ikki tomonlama va ko‘p tomonlama munosabatlarni, xususan, fan, madaniyat va ta‘lim sohasidagi aloqalarni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish kerakligi hamda turkiy xalqlarning buyuk madaniy-tarixiy merosini yoyish, Turk madaniyati

xalqaro tashkiloti (Turkso'y)ning ta'sirini oshirish, turkiy xalqlarning tarixi va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan buyuk shaxslarning yubileylerini birgalikda nishonlashga madaniyat sohasidagi xalqaro tashkilotlar, birinchi o'rinda YUNESKOni ham tortish kerakligi alohida urg'ulandi[23].

Biroq oldin Turkmaniston, keyin O'zbekiston ayrim sabablarga ko'ra bunday sammitlarda qatnashmay qo'ydilar. 2001 yildan boshlab Turkiyadagi iqtisodiy inqiroz ta'sirida sammitlar ishida turg'unlik bosqichi yoki uzoq tanaffus boshlandi: bu bosqichda sammitlar tashkil etilmay qo'yildi. Shunday qilib, o'zaro integratsiya g'oyasi ichki siyosiy omillar, birinchi navbatda, 2001 yilgi inqiroz oqibatida yuzaga kelgan moliyaviy qiyinchiliklar tufayli o'z dolzarbligini yo'qota boshladi[24].

Shu bilan birga, tadqiqot madaniy aloqalarning faqat gumanitar sohada emas, balki mintaqaviy barqarorlik, o'zaro ishonch va integratsiya jarayonlarini mustahkamlashda ham strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Ushbu aloqalar umumiy tarixiy-madaniy meros, til, din va qadriyatlar mushtarakligiga tayanib rivojlangani sababli, ular ikki xalq o'rtasidagi uzviy yaqinlikni saqlab qolish va mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tursunov A.A. O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari o'rtasida hamkorlikning huquqiy asoslarini yaratilishi. O'tmishga nazar jurnali. 2022 yil №8-son B.54-60.
2. Ўзбекистон Республикаси билан Қозоғистон Республикаси ўртасида Шартнома // <https://lex.uz/docs/4634870>.
3. Соглашение о сотрудничестве в области культуры // <https://lex.uz/docs/2660941>
4. Tursunov A.A. The role of the Republics of Uzbekistan and Kazakhstan the passage of international events between the countries of cenral atsia. Journal of multidisciplinary sciences and innovations. Company. German international journals. <https://ijmri.de/index.php/jsmsi>. B.1759-1763

5. Tursunov A.A. O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari o'rtasida hamkorlikning huquqiy asoslarini yaratilishi. O'tmishga nazar jurnali. 2022 yil №8-son B.54-60.

6. Соглашение о сотрудничестве в области культуры // <https://lex.uz/docs/2660941>.

7. Халикова Р.Э. Ўзбекистон – Қозоғистон илмий-маданий алоқалари тарихидан // Ўзбекситоннинг жаҳон ҳамжамияти билан ўзаро дўстлик ва ҳамкорлик алоқаларини мустаҳкамлашда халқ дипломатиясининг тутган ўрни ва роли. – Тошкент, 2017. – 202-бет. (Б.201-205).

8. Халикова Р.Э. Ўзбекистон – Қозоғистон илмий-маданий алоқалари тарихидан... – 202-бет.

9. Халикова Р.Э. Ўзбекистон – Қозоғистон илмий-маданий алоқалари тарихидан.... – 203-бет.

10. Қозоғистон Республикаси Президенти Н.А. Назарбоевнинг Ўзбекистон Республикасига ташрифи якуни тўғрисида Қўшма Ахборот // Ўзбекистон Республикаси Президенти девонининг нашри. Хабарнома. – №13-14. – 1994. – Б. 117.

11. Қозоғистон Республикаси Президенти Н.А. Назарбоевнинг Ўзбекистон Республикасига ташрифи якуни тўғрисида Қўшма Ахборот // Ўзбекистон Республикаси Президенти девонининг нашри. Хабарнома. – №13-14. – 1994. – Б. 118.

12. Tursunov A.A. O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari o'rtasida hamkorlikning huquqiy asoslarini yaratilishi. O'tmishga nazar jurnali. 2022 yil №8-son B.54-60.

13. Зиямов Н. Некоторые аспекты культурного сотрудничества стран Центральной Азии // Ўзбекистон тарихи. – 2002. – №4. – Б. 69-73.

14. Tursunov A.A. Mustaqillik yillarida O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari o'rtasida madaniy aloqalari kengaytirish masalalari . «XXI asr uzluksiz ta'lim tizimi: innovatsion trend va texnologiyalari qo'llashda muammolar, ularni bartaraf qilish yo'llari» xalqaro konferensiya 2025 yil 28 noyabr. 31-36

15. ЎзР МДА. М-7 жамғарма, 2-рўйхат, 36 йиғмажилд. – 22-26-варақлар.

16. ЎзР МДА. М-7 жамғарма, 2-рўйхат, 36 йиғмажилд. – 24-26-варақлар

17. <https://lex.uz/docs/2321437?ONDATE=22.02.2021&ONDATE2=06.05.1994&action=compare>.

18. Ўзбекистон республикаси Президенти девонининг хабарномаси (пресс-бюллетень) №14. Б.64

19. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti devonining xabarnomasi (press-byulleten) №14. B.64

20. Договор о создании Единого экономического пространства между Республикой Казахстан, Кыргызской Республикой и Республикой Узбекистан (г. Чолпон-Ата, 30 апреля 1994 года) (внесены изменения Решением Межгосударственного Совета Республики Казахстан, Кыргызской Республики, Республики Таджикистан и Республики Узбекистан от 17 июля 1998 года) // https://prg.kz/document/?doc_id=1016271.

21. Каримов И.А. Туркистон умумий уйимиз. – Тошкент: «Ўзбекистон», 1995. – Б. 16-17.

22. O‘zbekiston madhiyasi muallifi hayotining ko‘pchilikka ma’lum bo‘lmagan lavhalari // <https://kun.uz/53463172>.

23. Тошкент декларацияси // Ўзбекистон Республикаси Президенти хабарномаси. – 1996 йил 4-сон. – Б. 139-140.

24. Парубочая Е.Ф. Интеграция тюркского мира в современном этапе // Тамбов: Грамота. – 2016. – № 6 (68): в 2-х ч. Ч. 1. – С. 148. www.gramota.net/materials/3/2016/6-1/35.